

USCHOOL dan bir yillik kurs uchun sertifikat

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yilning 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2021 yil uchun ustuvor fan yo'nalishlari etib Fizika va **Xorijiy tillarni o'qitish**, deb belgilab berildi. Shu bilan birga, institutimizda talabalarning xorijiy tillarni bilish darajasini yanada oshirish maqsadida olib borilayotgan izchil islohotlarning davomi sifatida tanlov e'lon qilinadi.

Shu bois, institutning **Xalqaro hamkorlik bo'limi** va **USCHOOL** o'quv markazi bilan hamkorlikda tanlov tashkil etiladi. Tanlov g'olibiga bir yil uchun USCHOOLda bepul ingliz tili kursida o'qish uchun sertifikat beriladi. Tanlovda ishtirok etish talablari quyidagicha:

1. TIQXMMI talabasi bo'lishi lozim;
2. O'zlashtirish ko'rsatkichi yaxshi va a'llo baholardan iborat bo'lishi lozim (reyting daftarchasi nusxasi);
3. Maxsus ariza blankasini to'ldirilishi lozim. Inshoda nega aynan sizga ushbu imkoniyatni berishimiz kerakligi yoritib bering. Umumiylajmi 3 betdan oshmasligi lozim.

Topshirish muddati: 2021 yil 2 fevral, soat 17.00

Topshirish manzili: Institutning Xalqaro hamkorlik bo'limi, 11-binoning 306-xonasi

Ma'lumot uchun: USCHOOL ingliz tili kurslari bilan Toshkent shahrida yuqori mavqega ega o'quv markazi hisoblanadi. 5 bosqichdan iborat ingliz tili kurslari, jumladan IELTS kursi ham mavjud. Boshlang'ichdan to professional (advanced) darajagacha bosqichlarni qamrab olgan. Ushbu o'quv markazi institut 11-binosi 8 qavatida joylashgan.

tel:71/2370987

Uschool Grant Tanlovi uchun Ariza